



CULTURAL COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND TURKMENISTAN IN THE CONTEXT OF THE TURKIC PEOPLES' THEATRE

Shakhzod Oromov
 PhD Candidate
 Karshi State University
oromovshaxzod01@gmail.com
 Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbekistan, Turkmenistan, TURKSOY, theater festivals, "Palace of spirit", Grand Prix, "journey to Tashkent", "Dalli Dumbul".

Received: 01.11.25
Accepted: 02.11.25
Published: 03.11.25

Abstract: Since the first days of independence, the Republic of Uzbekistan has established cooperation with the Republic of Turkmenistan in the cultural sphere. Bilateral and multilateral ties between the theaters of Uzbekistan and Turkmenistan have been strengthened, and important results have been achieved in the cultural and creative fields.

TURKIY XALQLAR TEATRI KONTEKSTIDA O'ZBEKISTON VA TURKMANISTONNING MADANIY HAMKORLIGI

Shaxzod Oromov
 Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti,
oromovshaxzod01@gmail.com
 Qarshi, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Turkmaniston, TURKSOY, teatr festivallari, "Ruhiyat saroyi", Gran-pri, "Toshkentga sayohat", "Dalli Dumbul".

Annatsiya: O'zbekiston respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab Turkmaniston respublikasi bilan madaniy sohadagi hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ydi. O'zbekiston va Turkmaniston teatrlari o'rtasida ikki tomonlama hamda ko'p tomonlama hamkorlik aloqalari mustahkamlanib, madaniy va ijodiy sohada muhim natijalarga erishildi.

КУЛЬТУРНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА И ТУРКМЕНИСТАНА В КОНТЕКСТЕ ТЕАТРА ТЮРКСКИХ НАРОДОВ

Шахзод Оромов*Докторант базовой докторантуры**Каршинского государственного университета*oromovshaxzod01@gmail.com*Карши, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: Узбекистан, Туркменистан, ТЮРКСОЙ, театральные фестивали, "Дворец души", Гран-при, "Путешествие в Ташкент", "Далли Думбул".

Аннотация: Республика Узбекистан с первых дней обретения независимости наладила сотрудничество с Республикой Туркменистан в культурной сфере. Укрепились двусторонние и многосторонние связи между театрами Узбекистана и Туркменистана, достигнуты важные результаты в культурной и творческой сфере.

Kirish. Teatr san'ati xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni kuchaytirish, o'zaro anglashuv va hamkorlikni ta'minlashda ta'sirchan vositalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi madaniy hamkorlik jarayonida teatr san'ati muhim o'rin tutadi. Ikki davlat o'rtasida teatrlar faoliyati orqali amalga oshirilgan madaniy aloqalar mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab rivojlana boshladi. Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O'zbekiston va Turkmaniston teatr jamoalari o'rtasidagi ikki va ko'p tomonlama hamkorlik aloqalari tizimli ravishda yo'lga qo'yilgani bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Xususan, 1992-yil 26-mart kuni Toshkent shahrida o'tkazilgan "Navro'z-92" xalqaro teatr anjumani mazkur yo'nalishdagi ilk xalqaro hamkorlik tadbirlaridan biri bo'ldi [1]. Ushbu anjumanda Markaziy Osiyo respublikalarining yetakchi teatr jamoalari ishtirok etgan bo'lib, ular orasida Turkmaniston davlat yoshlar teatri jamoasi ham bor edi. 1992-yil 4- aprel kuni anjuman g'oliblari e'lon qilindi. Oliy mukofot – Gran-pri Turkmaniston davlat yoshlar teatri sahnalashtirgan "Dalli Dumbul" spektakli namoyishiga berilgan bo'lsa, Xalqaro teatr uyushmalari konferensiyasining maxsus mukofoti – Yu.Shakarjonov nomidagi sovrin, O'zbekistonning Farg'ona viloyat musiqali drama va komediya teatrining "Toshkentga sayohat" komediyasiga topshirildi [2]. Bu kabi teatr festivallari ikki xalq o'rtasidagi madaniy muloqot va o'zaro anglashuvni mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. 1993-yil 12-iyul kuni Qozog'iston Respublikasining Almata shahrida O'zbekiston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya va Turkmaniston davlatlari madaniyat vazirliklari ishtirokida Turkiy madaniyat va san'atni rivojlantirish xalqaro tashkiloti — TURKSOY (TÜRKSOY) tashkil etildi[3]. Ushbu tashkilot turkiy xalqlar o'rtasida umumiy madaniyat, til va tarixni saqlash, ularni kelajak avlodlarga yetkazish, shuningdek, madaniy va ijtimoiy bog'liqlikni mustahkamlash maqsadlarini ko'zlaydi. TURKSOYning asosiy faoliyat

yoʻnalishlaridan biri — sanʼat, teatr, musiqa, adabiyot, fotografiya va jurnalistika kabi sohalarda ijodiy almashuvlarni tashkil etishdan iborat [4]. Shu bilan birga, tashkilot uch tilda oylik jurnalni nashr etishni yoʻlga qoʻydi. Har yili TURKSOY turkiy dunyo shaharlaridan birini "Turk dunyosining madaniy poytaxti" (Cultural Capital of the Turkic World) sifatida eʼlon qilib [5], ushbu maqom doirasida keng qamrovli madaniy va turizmga oid tadbirlarni oʻtkazib kelmoqda. Ushbu tashkilot faoliyati turkiy xalqlar, jumladan, oʻzbek va turkman xalqlari oʻrtasidagi teatr sanʼati sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. TURKSOY tomonidan turkiy dunyo madaniyatida muhim oʻrin egallagan Marv (2015-yil, Turkmaniston), Xiva (2020-yil, Oʻzbekiston) va Annau (2024-yil, Turkmaniston) shaharlari "Turk dunyosining madaniy poytaxti" deb eʼlon qilindi. Ushbu maqom munosabati bilan ushbu shaharlarda qator madaniy tadbirlar, festivallar va ilmiy anjumanlar tashkil etildi.

2015-yil 27-yanvar kuni Turkmanistonning Marv shahri TURKSOY — Xalqaro Turk madaniyati tashkiloti tashabbusi bilan "Turk dunyosining madaniy poytaxti" unvoniga sazovor boʻldi. Ushbu maqom doirasida shaharda turli sohalarni qamrab olgan keng koʻlamli madaniy tadbirlar oʻtkazildi. Tadbirlarning ochilish marosimi "Ruhiyat saroyi"da boʻlib oʻtdi va unda turkiy tilli davlatlardan tashrif buyurgan sanʼat ustalari ishtirokida gala-konsert tashkil etildi. Shuningdek, turli turkiy mamlakatlarning sanʼat asarlari, fotosuratlar va hunarmandchilik namunalarini qamrab olgan xalqaro koʻrgazmalar tashkil etildi. Ushbu tadbirlar turkiy xalqlar oʻrtasida madaniy aloqalarni mustahkamlash va umumiy merosni keng targʻib qilishga xizmat qildi.

2015-yil may oyida "Turk dunyosining madaniy poytaxti" mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya oʻtkazildi. Unda adabiyot, sanʼatshunoslik, tarix, arxitektura va arxeologiya kabi sohalarda faoliyat yuritayotgan olimlar ishtirok etishdi. Konferensiya doirasida turkiy xalqlarning boy ilmiy va madaniy merosini saqlash, oʻrganish va kelgusi avlodlarga yetkazish masalalari muhokama qilindi. Mart—iyun oylari davomida TURKSOYga aʼzo mamlakatlardan kelgan sanʼat ustalarining konsert dasturlari tashkil etildi. Jumladan, Yunus Emre sheʼriyati asosida tayyorlangan musiqiy kompozitsiyalar ijro etildi. Ushbu konsertlarda Oʻzbekistonlik sanʼatkorlar ham faol ishtirok etdilar, bu esa mintaqalararo ijodiy hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qildi. Oktabr oyida Marv shahrida TURKSOYga aʼzo davlatlarning sahna sanʼati va teatr sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassisleri ishtirokida IV konferensiya oʻtkazildi. Anjumanda teatr sanʼatining kelajakdagi rivojlanish yoʻnalishlari, milliy tillarning sahna sanʼatidagi ahamiyati va madaniy merosni saqlash borasidagi dolzarb masalalar muhokama etildi.

2020 - yilda O'zbekistonning tarixiy Xiva shahri TURKSOY — Xalqaro Turk madaniyati tashkiloti tomonidan “Turk dunyosining madaniy poytaxti” sifatida tan olindi. Ushbu maqom doirasida turli xalqaro va mintaqaviy darajadagi madaniy tadbirlar tashkil etildi. Jumladan, 2020 - yil 30–31 mart kunlari Ichan-qal'a muzey-qo'riqxonasi va Nurillaboy saroyi majmuasida an'anaviy va folklor san'at namunalari, fotosurat ko'rgazmalari, milliy hunarmandchilik mahsulotlari ko'rgazmalari hamda konsert dasturlari bo'lib o'tdip[6]. Pandemiya sharoiti sababli rasmiy ochilish marosimi 2021-yil 15-sentabr kuniga ko'chirildi. Ushbu tadbirda YuNESKO, ICASOM va ShHT (SCO) kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar va 60 dan ziyod davlatdan tashrif buyurgan ekspertlar ishtirok etdilar. Gala-konsertda esa turkiy davlatlarning 400 dan ortiq san'at ustalari ishtirok etib, madaniy aloqalarning keng qamrovli va interfaol tabiati namoyon etildi. TURKSOY tashabbusi bilan Xiva shahrida teatr, musiqa, fotografiya, opera va raqs san'atiga oid jamoatlar uchun yig'ilishlar, konsert dasturlari, fan va madaniyatga bag'ishlangan xalqaro forumlar tashkil etildi. Bunday tadbirlar turkiy davlatlar o'rtasidagi madaniy muloqot va ijodiy hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga xizmat qildi.

“Turk dunyosining madaniy poytaxti” maqomi doirasida amalga oshirilgan muhim tadbirlardan biri sifatida, 2021-yilning oktabr oyida Xiva shahrida “Turk dunyosi shoirlari uchrashuvi” nomli folklor-san'at tadbiri tashkil etildi. Mazkur tadbir turkiy xalqlarning adabiy an'analari, ma'naviy qadriyatlari va ijodiy merosini namoyon etish, shuningdek, umumiy madaniy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qildi. Tadbir doirasida Xiva shahridagi teatr binolariga ekskursiyalar, ilmiy-madaniy muloqotlar va davra suhbatlari tashkil etildi. Ushbu faoliyatlar milliy teatr san'ati va adabiyotning turkiy makondagi umumiylik va xilma-xillik asosidagi rivojlanish jarayonlarini tahlil qilish, ularni saqlash va targ'ib etishga qaratilgan muloqot platformasi vazifasini bajardi. Tadbirda Turkmanistondan tashrif buyurgan san'at va adabiyot namoyandalarining faol ishtiroki ikki davlat o'rtasidagi ijodiy va madaniy hamkorlikni yanada mustahkamlashga turtki berdi. Bunday muloqotlar madaniy diplomatiyaning ta'sirchan vositalaridan biri sifatida turkiy xalqlar o'rtasida o'zaro anglashuv va hamjihatlikni kuchaytirishda muhim o'rin tutadi.

2023-yil 14-noyabr kuni Turkmanistonning Ashxobod shahrida IV Xalqaro “Baxtli davr teatr san'ati” festivali rasman o'z ishini boshladi. Festival Turkmaniston Madaniyat vazirligi tashabbusi bilan tashkil etilgan bo'lib, unda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Tojikiston, Rossiya va Turkiyadan teatr jamoalari, sahna san'ati mutaxassislari va teatr tanqidchilari ishtirok etdilar [7]. Festivalning ochilish marosimi Ashxoboddagi Bosh akademik dramatik teatr binosida bo'lib o'tdi va unda Turkmaniston madaniyat vaziri Atageldi Shamuradov ishtirok etdi. Festival turkiy xalqlar o'rtasida ijodiy hamkorlikni mustahkamlash,

teatr orqali milliy qadriyatlar va an'analarni targ'ib qilish maqsadlarini o'zida mujassam etgan xalqaro platforma sifatida namoyon bo'ldi. Mazkur festivalda O'zbekistondan Xorazm viloyati musiqali va drama teatri jamoasi ishtirok etdi. Teatr jamoasi Ashxobod shahridagi Maxtumdagi Milliy musiqali drama teatri sahnasida "Shoxxsanam va G'arib" spektaklini namoyish etdi. Ushbu asar Xorazm mintaqasining an'anaviy ijodiy maktabi va folklor elementlari asosida sahnalashtirilgan bo'lib, festivalda O'zbekiston teatr san'atining o'ziga xos va boy merosini namoyon etdi.

Festival doirasida Turkmanistonning Maxtumdagi Milliy musiqali drama teatri tomonidan sahnalashtirilgan "Söygi hem hasrat" ("Muhabbat va xasrat") spektakli ham tomoshabinlar va mutaxassislar tomonidan yuqori baholandi. Ushbu spektakl uchun teatr jamoasi tashkilotchilar tomonidan munosib rag'batlantirildi va festival sovrinlari bilan taqdirlandi. Xususan, teatrning yosh aktrisasi Gulnabat Abdullaeva tomonidan yaratilgan sahna obrazi "Eng yaxshi aktrisa" ("Best Actress") nominatsiyasiga loyiq deb topildi [8].

2025-yil 20 - 23 may kunlari Qozog'istonning Almati shahrida III TÜRKSÖY Talabalar Teatri Festivali bo'lib o'tdi. Ushbu festival Qozog'iston Milliy San'at Akademiyasi tashabbusi bilan, Qozog'iston Madaniyat va Axborot vazirligi hamda Xalqaro turk madaniyati tashkiloti - TÜRKSÖY ko'magida tashkil etildi. Festival turkiy xalqlar o'rtasidagi teatr sohasidagi yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash, ijodiy almashuvni rivojlantirish hamda umumiy madaniy qadriyatlarni targ'ib qilish maqsadlarini ko'zda tutdi. Festivalda turkiy davlatlardan talabalar teatr jamoalari qatnashdi. Xususan, O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat instituti talabalari turk yozuvchisi va dramaturgi Reshat Nuri Gyuntekinning "Halala" (turkcha: Hülleci) asari asosida tayyorlangan spektakl bilan ishtirok etdilar. Spektakl sahna tili, dramaturgiya tahlili va ansambl ijrosi jihatdan yuqori baholandi va jamoa "Eng yaxshi ansambl ijro" nominatsiyasida mukofotga loyiq deb topildi. Turkmaniston Madaniyat instituti talabalari esa Turkmaniston Milliy yetakchisi Gurbanguli Berdimuhamedov qalamiga mansub "Annenin Vasiyeti" (o'zbek tilida "Onaning vasiyati") asari asosida sahnalashtirilgan dramatik chiqish bilan ishtirok etdilar [9]. Spektakldagi dramatik kuch va obraz yaratish mahoratlari alohida e'tirof etildi. Turkmanistonlik talabalardan Ayna Sumaeva tomonidan ijro etilgan ayol roli festival hakamlari tomonidan yuqori baholanib, "Eng yaxshi ayol roli" nominatsiyasida g'olib deb topildi. Festival yosh sahna ijodkorlarining turkiy madaniy makondagi o'zaro anglashuvi, tajriba almashuvi va teatr orqali muloqotini faollashtirishda muhim platforma sifatida xizmat qildi. Bunday tadbirlar yosh avlodni umumiy madaniy ildizlar asosida tarbiyalash, hamkorlik muhitini shakllantirish va teatr san'atida yangi tendensiyalarni o'rganish imkoniyatini yaratadi.

Xulosa. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston va Turkmaniston teatrlari o‘rtasida ikki tomonlama hamda ko‘p tomonlama hamkorlik aloqalari mustahkamlanib, madaniy va ijodiy sohada muhim natijalarga erishildi. Turkiy madaniyat va san’atni rivojlantirishga qaratilgan xalqaro tashkilot — TURKSOYning tuzilishi teatr san’ati uchun yangi imkoniyatlar yaratib, turkiy davlatlar o‘rtasidagi ijodiy aloqalarni kengaytirishda muhim rol o‘ynadi. Shu doirada tashkil etilgan xalqaro festivallarda O‘zbekiston va Turkmaniston teatr kollektivlari faol ishtirok etgani, ikki mamlakat o‘rtasidagi madaniy hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirzayev G‘.R. Azaliy qardoshlik rishtalari taraqqiyot yo‘lida (o‘zbek va turkman xalqlari hamkorligi). Monografiya. - T.: Navro‘z, 2016. - B. 83.
2. Anjuman g‘oliblari e‘lon qilindi. // Madaniyat va ma‘rifat 1992 yil 7 aprel
3. Bosh sahifa.Turk dunyosida yangi tashkilot. // “O‘zbekiston ovozi”, 1993 yil 14 iyul.
4. Turk madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan yangi qadam. // Madaniyat va ma‘rifat.1993 yil 15 iyul.
5. Turkmanistonda teatr festivali o‘tkazildi.// “O‘zbekiston ovozi” 1993 yil 6 aprel.
6. Respublika Turkman madaniyat markazi joriy arxivi yillik hisobotlari.
7. Xudoyorov Q. Qardosh xalqlarning ma‘rifiy ishlar sohalaridagi hamkorligi.//Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar. 2023. № 4. – B.143.
8. https://turkmenistan.gov.tm/en/post/77273/representatives-magtymguly-theater-received-awards-international-theater-festival-turksoy?utm_source=chatgpt.com
9. Respublika Turkman madaniyat markazi joriy arxivi yillik hisobotlari.